

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиш методикаси кафедраси профессори Хударган
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова
(15 апреля 2021 года)**

Жиззах-2021

УДК: 581.5 (09)

ББК: 28.58 Г

Э-59

“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари

Жиззах 2021. – 498 бет.

Таҳрир хайъати:, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир хайъати раиси б.ф.н. доц. Қодиров Ғ., таҳрир хайъати ўринбосари проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У. доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э. б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н. б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С. б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т. Усанов У.Н.

Тўплам редакторлари: б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD). Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

Ушбу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.

Уларда флора, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиш ҳамда ноёб, йўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиш, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ценозлари ҳайвонларни ўрганиш, паразитлар ва энтомокомплекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта махсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.

Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартдаги 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.

4. Dadaeva G.S. Dendroflora of Zaaminsky State Reserve. INTERNATIONALENGINEERING JOURNAL FOR RESEARCH AND DEVELOPMENT (IEJRD), India, page: 11-22.

5. Демурина Е.М. Растительность западной части Туркестанского хребта и его отрогов. Ташкент, Фан, 1975, с.9-12, 73-129.

6. Коровин Е.П. Ботанико-географические районы Узбекистана и особенности его растительности / Флора Узбекистана. В 6-и т. – Ташкент, 1941. – Т. 1. – С. 23-38.

7. Коровин Е.П. Растительность Средней Азии и Южного Казахстана. Част 1. – Ташкент: АН УзССР, 1961. – 452 с.

8. Камелин Р.В. Кухиستانский округ горной Средней Азии. – Л.: Наука, 1979. – 117 с.

9. Тожибаев.К.Ш., Бешко Н.Ю. Кадастр редких и эндемичных растений Джизакского и Навоийскоговилоятов Республики Узбекистан //Биоразнообразии Узбекистана-мониторинг и использование. -Ташкент, 2007. С.200-208.

10. Эсанкулов А.С. Флора Зааминского государственного заповедника. Диссертация на соискании учёной степени кандидата биологических наук, Ташкент, 2012, С.3-5.

DORIVOR O'SIMLIKLARNING MURAKKAB TARKIBI

Yu.E. Ikromova, Sh.A. To'xсанov
Jizzax davlat pedagogika instituti

Atrofimizda tarqalgan deyarli barcha o'simliklar shifobaxshlik xususiyatiga ega. Xo'sh, shunday ekan, ularning shifobaxshlik xususiyati, quvvat kuchi nimalarga bog'liq? Gap shundaki, o'simliklar shunday bir murakkab tuzilishga ega bo'lgan tabiiy laboratoriyaki, oddiy moddalardan murakkab organik moddalarni, ya'ni biologik faol moddalarni sintez qiladi. Inson esa u yaratgan mo'jizalar oldida hali hanuz lol bo'lib kelmoqda.

O'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarning soni, miqdori hamda sifati ularning shifobaxshlik xususiyatlarini belgilashda muhim omil sanaladi.

O'simlik xom ashyolaridan dori – darmon tayyorlashda farmakologik ahamiyatga ega bo'lgan oqsillar, yog'lar, karbonsuvlar, alkaloidlar, efir moylari, saponinlar, flavonoidlar va boshqa faol moddalar muhim rol o'ynaydi. Shularning ayrimlari haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Alkaloidlar o'simliklarning turli organlarida to'planadigan azot saqlovchi va ishqor xususiyatiga ega juda murakkab organik moddalardan tashkil topgan moddalardir. Fiziologik ta'sirchanlik xususiyatiga ega alkaloidlardan morfin, papaverin, xinin, kofein, kodein kabi turli xil dori – darmon ishlab chiqarishda xom – ashyo vazifasini o'taydi.

Flavonoidlar organik moddalarning geterosiklik birikmalaridan tashkil topgan bo'lib, o'simlik organlarida sariq bo'yoq(pigment) holida uchraydi. Ular spazmologik(siqilishda) va balg'am ko'chiruvchi ta'sirga ega, yallig'lanish hamda o'n ikki barmoq ichak jarohatlarini davolashda yuqori samara beradi.

Glikozidlar o'simlik organlarida eng ko'p to'planadigan, namlik va fermentlar ta'sirida ikkiga: qandli glikozid va qandsiz aglikon komponentlarga bo'linadi.

Glikozidlar ta'sir qilish xususiyatiga qarab yurak – qon tomir sistemasiga ta'sir etuvchi, terlatuvchi, achchiq, saponinli glikozidlar va antraglikozidlarga bo'linadi. Aynan yurak – qon tomir sistemasiga ta'sir etuvchi glikozidlar to'g'ridan to'g'ri yurakka ta'sir etadi. Achchiq glikozidlar oshqozon – ichak yo'llarining ish qobilyatini oshiradi, ishtahani ochadi, ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi, ateroskleroz(diospeniya)ni davolaydi. Shunindek, quvvatlantiradigan, siydik haydovchi, surgi vosita, immun tizimini mustahkamlaydigan, garmonal, gonadotrop va neyrotrop ta'sir etish qobilyatiga ega.

Saponinlar o'simlikning barcha organlarida bo'lib, uning miqdori hamda sifati o'simliklarning rivojlanish davrlariga qarab o'zgarib turadi. O'simlik vegetatsiya davrining oxiriga kelib, saponin miqdori ildiz va tugunaklarda ayniqsa, yuqori bo'ladi. Saponinlar ko'pruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, glikozidlar guruhiga kiradi. Ular gidrolizlanganda qand hamda saponinlarga parchalanadi.

Saponinlar ta'sir kuchi yuqori bo'lib, burun, lab va ko'z atrofiddagi hujayralarni yallig'lantiradi. Ular ko'zni yoshlantirib, qizartiradi, ba'zan allergiya beradi. Saponinlar qizil qon tanachalari(eritrotsitlarni) parchalaydi, ya'ni gemolizlaydi. Ularda tayyorlangan dorilar balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Efir moylari o'simliklarning hamma organlarida to'planadigan bir qancha moddalarning murakkab birikmalardan hosil bo'lgan, uchuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan organik moddalar yig'indisidir. Hozirgi kunda efir moylarining 1000 dan ortiq komponentlari aniqlangan, yalpizdan olingan efir moyi tarkibida 107, yorongulnikida 270 komponent borligi hisobga olingan. Efir moyi asosida tayyorlangan dori – darmonlar balg'am ko'chiruvchi, antiseptik bo'lsa, ayrim turlari inson organizmini sovutadi(yalpiz), tinchlantiradi.

Ilmiy tabobatda qorazira, arpabodiyon, mixchagul, yalpiz, rayhon, sitrus, evkalipt, lavr kabi o'simliklardan olinadigan dori moddalari bilan turli xastaliklarni davolaydilar, jumladan, kamfora moyida nafas olish hamda yurak ish faoliyatini qo'zg'atuvchanlik ta'sir kuchi mavjud.

Vitaminlar murakkab organik birikmalardan hosil bo'lib, o'simliklarning barcha organlarida saqlanadi. Ular tashqi muhit ta'siriga chidamsiz bo'lib, tez buziladi, parchalanadi hamda o'zining foydali xususiyatlarini yo'qotadi. Masalan, C, P, B₁, B₂, B₆, PP kabi vitaminlar suvda tez parchalanadi hamda shifobaxshlik xususiyatini yo'qotadi.

A,D,E,K vitaminlari qaynagan suvda tez parchalanmaydi yoki buzilmaydi, ammo yog'da parchalanadi, ta'sir quvvatini yo'qotadi.

C,B,A vitaminlari kislorod ta'sirida buziladi, B₂ vitamini esa ta'sirga chidamliroqdir.

Vitaminlar inson to'qima va organlari uchun doimiy va zaruriy komponentlardan hisoblanib, metabolizmda faol ishtirok etadi. Inson organizmining kasalliklarga chidamlilik qobilyatini oshiradi. Qon tomirlar devoriga xolesterin yig'ilishiga yo'l qo'ymaydi. Qon hosil bo'lishida (B₁₂), qon tarkibini doimiy saqlashda, o'sish va rivojlanishni, teri va ichki a'zolar shilliq qavatining bir butunligini saqlashda (A), nerv sistemasi normal funksiyasini ta'minlashda, xotirani yaxshilashda (B₁) muhim ahamiyat kasb etadi. Vitaminlarning yetishmasligi gipovitaminoz, ortib ketishi gipervitaminoz, umuman yo'q bo'lib qolishi avitaminoz kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Achchiq moddalar (azotsiz murakkab moddalar) terpenli birikmalardan tashkil topgan bo'lib, achchiq ta'mga ega. Bu moddalar ta'sirida oshqozon shirasi ko'plab ishlab chiqariladi, ovqat yaxshi hazm bo'la boshlaydi, ishtaha ochiladi.

Kumarinlar ayniqsa, ziradoshlar oilasi vakillarida to'planadigan biologik faol moddalardir. Tibbiyotda eng ko'p furokumarinlar ishlatiladi. Bu moddalar organizmni ultrabinafsha nurlariga nisbatan chidamliligini oshiradi, qon tomirlarini kengaytiradi, teri xastaliklarini davolaydi.

Organik kislotalar o'simlik hujayra shirasi tarkibida uchraydi. O'simliklarning barcha organlarida, ayniqsa, mevalarida, olma, limon, vino, shovulda chumoli, askorbin, xin va lanolin kislota holda uchraydi.

Organizmida organik kislotalar moddalar almashinuvida faol qatnashadi, shira ajralishini kuchaytiradi, o't suyuqligi, me'da osti bezi shirasini ajralishini kuchaytiradi. Ular bakterisidlik xususiyatiga ega. Ishtahani ochadi, ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi.

Fermentlar o'simlik to'qimlarida paydo bo'ladi, ular asosan o'simlikning mevasida to'planadi hamda moddalar almashinuvi jarayonida faol qatnashadi. Fermentlar deyarli oqsil moddalardan hosil bo'ladi. Chunki fermentlar oqsil tabiatiga ega bo'lib, organizmdagi asosiy funksiyasi katalizatorlikdir.

Fermentlarga ta'sir ko'rsatadigan harorat 40°C dan yuqori bo'lmasligi kerak agar harorat bu ko'rsatkichdan yuqori bo'lsa, fermentlardagi oqsillar koagulyatsiya holiga tushadi, natijada fermentlar katalizatorlik xususiyatini yo'qotadi.

Fitonsidlar o'simlik organizmida to'planib, mikroorganizmlari nobud qilish xususiyatiga ega bo'lgan murakkab organik birikmalardir. Bu moddalarni o'simlik antibiotigi deb ham ataladi.

Fitonsidlar alkaloid, efir moyi, antosian ko'rinishida bo'lishi mumkin. O'simliklardan olingan fitonsidlar tibbiyotda antibiotik sifatida ishlatiladi, ayniqsa, yuqumli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Kraxmal polisaxaridlarga mansub bo'lib, murakkab tuzilishga ega. U organizmni tetiklashtiradi hamda quvvatni oshiradi. Shuningdek, oshqozon – ichak va teri kasalliklarida keng qo'llaniladi.

Dorivor o'simliklarning yana bir o'ziga xos tomoni mavjudki, ba'zi bir hastaliklarni tabiiy yo'l bilan davolashda, o'simlik tarkibidagi aynan qaysi kimyoviy modda shifobaxsh xususiyatga ega ekanligini bilmagan holda foydalanamiz. Oddiygina misol, bachadon kista (o'simta)sini davolashda, uni hajmini kichraytirishda kartoshka tugunagi foyda beradi. Ya'ni har tong ertalab och qoringa bir dona kartoshkani qirg'ichdan chiqarib, suvi ichiladi. Bu jarayon ikki uch oyda o'z ijobiy o'z natijasini beradi. Agar biz toza kraxmaldan foydalansak, bunday natijaga erisha olmaymiz. Chunki kartoshka tugunagining asosi kraxmal moddasi. U kartoshka tarkibidagi boshqa kimyoviy birikmalar bilan birga ta'sir doirasiga ega bo'ladi.

Oqsillar asosan o'simliklarning urug'i va mevalarida to'planadi. U organizmga moddalar almashinuvi va quvvatni oshiruvchi ta'sirga ega.

Ilmiy tabobatda kversetin va rutin moddalaridan tayyorlanadigan dori – darmonlar ko'proq qo'llaniladi. Ular yurak – qon tomir, qon ketish, oshozon yarasi, qon bosimi oshishi kabi hastaliklarda ishlatiladi.

Shu narsani qayd etish lozimki, shifobaxsh o'simliklar tarkibidagi dori – darmon moddalar turli tuman bo'lganligi sababli, inson organizmning funksional sistemasi ish faoliyatiga har taraflama, ya'ni ko'p qirrali ta'sir etish xususiyatiga ega.

Shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dori – darmonlarning ustunlik tomoni ham shundaki, u inson organizmida uchraydigan bir, ikki va undan ham ko'p kasalliklarga

birdaniga ta'sir etish qobiliyatiga ega bo'ladi. Tibbiyotda shifobaxsh o'simlikliklar bilan davolash fitoterapiya deb ataladi va hozirgi zamonaviy tibbiyotning asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari o'simliklar o'simlik organlaridan turli pigment ya'ni bo'yoqlar olinadi. Ularga xlorofill, flonovoid, antotsian, karotinoid va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalq o'rtasida shifobaxsh o'simliklar foydadan holi emas, ularning inson organizmi uchun zarari yo'q, zaharlamaydi, qo'shimcha hastaliklar keltirib chiqarmaydi, degan fikr, tushunchalar mavjud. Ammo bu fikrlar shifobaxsh o'simliklardan mutaxassislar yordamida to'g'ri va oqilona foydalanilsa, bir o'simlikni ikkinchi o'simlik turi bilan almashtirilmasa, o'simliklarni bir – biriga hamda inson organizmiga to'g'ri kelishini hisobga olinsa, o'simliklar rivojlanishining aniq davrlariga, aniq miqdor va aniq yig'malarga, hamda iste'mol etish qoidalariga to'la rioya etilgandagina to'g'rib o'ladi va ulardan foydalanish yuqori samara beradi. Aks holda, salbiy natija beradi va ko'ngilsizliklarga olib keladi. Shunday ekan, shifobaxsh o'simliklardan dori – darmon o'rniida foydalanilganda faqatgina yuqori malakali, ixtisoslashgan mutaxassis shifokorlarning maslahat va ko'rsatmalariga amal qilish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akopov I.E. VajneyShie otechestvennye lekarstvennye rasteniya i ix primeneniye. Izd-vo. Medisina, Tashkent, 1986 g., -C. 546.

2.Xolmatov X., Pratorov O', Mahsumov M., Asoratsiz dori – darmonlar. Toshkent, 2006 y., -B. 252.

3. Ivanova – Paroyskaya. Lekarstvennye rasteniya Uzbekistana. Tashkent, 1947.

DORIVOR O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISH

Yu.E. Ikromova, D.A. Agzamova
Jizzax davlat pedagogika instituti

O'zbekistonning boy florasi foydali, shu jumladan, xalq va ilmiy tabobatda turli xastaliklarni davolashda ishlatiladigan dorivor o'simliklari bilan asrlar osha kishilarni o'ziga jalb etib keladi. Respublikamizda tog'rayhon, alqor, kiyiko'ti, ermon (achchiq shuvoq), qizilcha, qator gulli afsonak, oddiy dalachoy, dala qirqbo'g'imi, oddiy bo'yimodaron va Turkiston arslonquyruqlarining yer ustki qismlari, katta zubtutum va qoraqobiq barglari, na'matak mevasi, bodom urug'i kabi dorivor o'simliklar har yili katta miqdorda yig'ib olinadi.

Dorivor o'simliklar zaxirasi qancha ko'p bo'lmasin, agar u har yili tartibsiz ravishda yig'ib olinsa, e'tiborsizlik bilan payxon etilaversa, vaqti kelib bu katta zaxira ham tugaydi. Chunki tabiat faqat berishi emas, balki yo'qotilganlar o'rniini to'ldirish uchun insoniyat va boshqa tabiat tarkibiy qismlari ham bevosita ishtirok etishi lozim sanaladi. Masalan, bir vaqtlar Baxmal tog'larini egallab, gurkirab o'sgan alqor (*Mediasia Macrophylla pimen*) o'simligi hozirgi kunda yo'q bo'lib ketgan, sababi esa dorivorligi uchun ayovsiz munosabatda bo'lib, vegetativ qismlarini ham qoldirilmagan. Bundan tashqari juda ko'p tog' dorivor o'simliklari chorva mollari tomonidan yo'q qilib yuboriladi. O'zbekistonning ayrim viloyatlarida o'sadigan gangituvchi bozulbang va Viktor qoraqobug'i kabi o'simliklar „boshiga" ham shunday kun kelib qoldi. Endilikda bu o'simliklar tabiiy o'sish joyidan yig'ilmaydi. Chunki ular „Qizil kitob"ga kiritilgan. Zarur

	ШАКЛЛАНТИРИШ.....	137
50	Karimov U.U., Karimova G.Yi. THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ACHIEVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS.....	139
51	Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. BIOLOGIK TA'LIM JARAYONINING YAXLITLILIGI, O'QITISH PRINSIPLARI VA QONUNIYATLARI.....	143
52	Норматова Д.Э. ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ.....	146
53	Салимова Х.Х., Толибова Г.Х. ТУПРОҚШУНОСЛИК ФАНИДАН “ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ.....	150
54	Mavlonova S.X., Maxammadiyev D.M., Aberqulov E.A., Xolmo'minova Ch.I. TABIATSHUNOSLIK DARSLARINING MAZMUNI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI.....	156
55	Мирзоева М.А., Ҳайитбоева М.Б. СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛУ.....	159
56	Qarshiboyeva N.H., Xolmirzayeva A.A. BOTANIKA DARSIDA QOQIO`TDOSHLAR (ASTERACEAE) OILASIGA MANSUB DORIVOR O`SIMLIKLARNI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	163
57	Sulliyeva S.X., Zokirov Q.G'. BIOLOGIK TA'LIMNING ROLI.....	167
58	Қозақова С. “БОБУРНОМА” СЮЖЕТИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	171
59	Almamatov J.M., Jumaboeva D.B. KATTA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARGA YIL FASLLARI HAQIDA TUSHUNCHA BERISH.....	176
60	Tojiboyev Sh.J., Sheraliyev O.X. O`SIMLIKLARDAN IBRAT OLING.....	180
61	С.М. Назарова, И.Р. Баракаев, М.Р. Халилова. “ТУПРОҚНИНГ АГРОФИЗИКАВИЙ ХОССАЛАРИ” МАВЗУСИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	185
62	M.U. Eshonqulova, N. Hamraqulova. MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSOIN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.....	190
63	Р. Уразова. ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРИРОДОВЕДЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	192
	3-SHO'BA. BIOXILMAXILLIK, O'SIMLIK VA HAYVONOT GENOFONDINI SAQLASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH	
64	Г.Ў.Қодиров, Д.Э. Азимова, МОЛГУЗАР ТИЗМАСИ ФЛОРАСИНИНГ И.Г. СЕРЕБРЯКОВ (1962) ТАСНИФИ БЎЙИЧА ҲАЁТИЙ ШАКЛЛАРИ.....	195
65	J. To'lishev. TOLALI ZIG'IRNING BIOLOGIYASI.....	197
66	D.E. Azimova, M.X. Sharipova, M.S. Sayfiddinov. O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARIDA TARQALGAN ROSACEAE OILASINING TURKUM TURLARI.....	199
67	L.S. Ortiqova, E.A. Aberqulov, K. Abroroba. EFEMER VA EFEMEROID	